

7. E Hassan I., Naeem A., Gulzar S. (2021). Voluntary tax compliance behavior of individual taxpayers in Pakistan. *Journal of Financial Innovation*, 7. <https://doi.org/10.1186/s40854-021-00234-4>
8. Saad N. (2012). Tax Non-Compliance behaviour: Taxpayers' view. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 65, 344–351. <https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2012.11.132>
9. Musimenta D., Nkundabanyanga S. K., Muhwezi M., Akankunda B., Nalukenge I. (2017). Tax compliance of small and medium enterprises: A developing country perspective. *Journal of Financial Regulation and Compliance*, 25, 149–175. <https://doi.org/10.1108/jfrc-08-2016-0065>
10. Palil M. R. (2010). Tax knowledge and tax compliance determinants in self assessment system in Malaysia [Doctoral dissertation]. University of Birmingham.



“ISLOM RENESSANSI” TARIXIY BOSQICHIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBINING RIVOJLANISHI

Raximova Guzalbegim Murodovna
“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a22

Annotatsiya. Ushbu maqolada «Islom renessansi» davrida asosiy vositalarning hisobi va umuman, hisob tizimining rivojlanishi, shuningdek, asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, mazmuni, nazariy ahamiyatini ochib berishda asosiy vositalar tushunchasining tarixiy shakllanish bosqichlari tadqiq etilgan. Sharq olimlarining buxgalteriya hisobi, hisob obyektlari haqidagi ilmiy bayonlarining kamyoblighi, ilmiy tadqiqotimizda asosiy vositalar hisobi metodologiyasining shakllanishi, rivojlanishi va takomillashishida nafaqat Rossiya, Yevropa va Amerika, shuningdek, Sharq olimlarining ilmiy-nazariy yondashuvlari tatbiq qilingan.

Kalit so‘zlar: “Islom renessansi”, asosiy vositalar hisobi, Sharq olimlari, tarixiy bosqichlari, inventarizatsiya, smeta, ikkiyoqlama yozuv.

РАЗВИТИЕ УЧЕТА ОСНОВНЫХ СРЕДСТВ НА ИСТОРИЧЕСКОМ ЭТАПЕ "ИСЛАМСКОГО РЕНЕССАНСА"

Рахимова Гузалбегим Муроодовна
Национальный исследовательский университет
«Ташкентский институт инженеров ирригации
и механизации сельского хозяйства»

Аннотация. В данной статье рассмотрен учет основных средств и развитие системы учета в целом в период «Исламского Ренессанса», а также формирование исторического этапа основных средств, их экономическая сущность, содержание и теоретическое значение. В наших научных исследованиях были применены научно-теоретические подходы не только российских, европейских и американских ученых, но и восточных ученых при формировании, развитии и совершенствовании методики учета основных средств.

Ключевые слова: «Исламский Ренессанс», учет основных средств, ученые-Востоковеды, исторические этапы, инвентаризация, смета, двусторонняя запись.

DEVELOPMENT OF ACCOUNTING FOR FIXED ASSETS AT THE HISTORICAL STAGE OF THE "ISLAMIC RENAISSANCE"

Rakhimova Guzalbegim Murodovna
National Research University "Tashkent institute of
irrigation and agricultural mechanization engineers"

Abstract. This article examines the accounting of fixed assets and the development of the accounting system as a whole during the period of the “Islamic Renaissance”, as well as the formation of the historical stages of fixed assets, their economic essence, content and theoretical significance. In our scientific research, scientific and theoretical approaches were applied not only from Russian, European and American scientists, but also Eastern scientists in the formation, development and improvement of the methodology for accounting for fixed assets.

Key words: “Islamic Renaissance”, accounting of fixed assets, Oriental scholars, historical stages, inventory, estimate, two-sided recording.

Kirish. Asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyati, mazmuni, nazariy ahamiyatini ochib berishda asosiy vositalar tushunchasining tarixiy shakllanish bosqichlarini o'rganish muhimdir. Asosiy vositalarning iqtisodiy mazmun-mohiyatini ochib berish jarayonida iqtisodiy qonunlar, ta'limotlar va ko'plab iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalarini o'rgandik, ma'lumotlarni to'pladik. Biroq iqtisodchi olimlar orasida buxgalteriya hisobining rivojlanish bosqichlarini tadqiq etishda, asosan, Rossiya, Yevropa va Amerika olimlarining ilmiy tadqiqotlari, fikr-mulohazalari, yondashuvlariga ko'plab izohlarni uchratdik. Oxirgi yillarda Sharq olimlari va mutafakkirlarining buxgalteriya hisobida, shu jumladan, asosiy vositalar hisobida qo'llaniladigan metodlar, metodologiyalarning shakllanishi, rivojlanishi va takomillashib borishiga qo'shgan hissalarini tadqiq etilmaganligini angladik. Sharq olimlarining buxgalteriya hisobi, hisob obyektlari haqidagi ilmiy bayonlarining kamyoblighi, ilmiy tadqiqotimizda asosiy vositalar hisobi metodologiyasining shakllanishi, rivojlanish va takomillashish jarayonlarida nafaqat Rossiya, Yevropa va Amerika, balki Sharq olimlarining ilmiy-nazariy yondashuvlarini tatbiq etishni asosiy vazifalardan biri etib belgiladik.

Adabiyotlar sharhi. Ilmiy tadqiqotimiz jarayonida mamlakatimiz olimlarining ilmiy ishlari bilan bir qatorda BHXSGa o'tgan mamlakatlar iqtisodchi olimlarining tadqiqot natijalari, ilmiy yondashuvlarini o'rgandik va qiyosladik, ammo hozirgacha asosiy vositalarning iqtisodiy mohiyatini aniqlash masalasida buxgalter va iqtisodchilar o'rtasida yagona yondashuv mavjud emas.

Iqtisodiy amaliyotda "asosiy vosita" atamasi ko'pincha "asosiy fondlar" va "asosiy kapital" kabi tushunchalar bilan aralashib, turli ifodalovchi fikrlarni yuzaga keltiradi.

Rossiya iqtisodchi olimlari D.A.Yendovitskiy va K.N.Mokshina: "Asosiy vosita obyekti bir paytning o'zida ham asosiy vosita, ham aktiv, ham umuman noaktiv sifatida tan olinishi mumkin" [18], – deb hisoblaydilar.

Demak, bu holat amaliyotda qiymatning oshishi yoki kamayishi, shuningdek, amortizatsiyani belgilashda noaniqliklarga olib keladi. Asosiy vositalarning ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohalaridagi iqtisodiy mohiyati va ahamiyati doimo iqtisodiyot va buxgalteriya hisobi sohasidagi olim va mutaxassislar o'rtasida muhkama mavzusi bo'lib kelgan.

Bu ilmiy yondashuvni M.Mescon[19] quyidagicha to'ldiradi: "Asosiy vositalar uzoq vaqt davomida ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi va o'z qiymatini korxonaga mahsulotlariga asta-sekin o'tkazuvchi mehnat vositasidir".

Har bir mamlakatning ichki moliyalanishida xalqaro kredit va xalqaro investitsiyaga ehtiyoji mavjudligi, fond birjalarida ishtirok etish xohish-istagi mavjudligini o'zaro moliyaviy manfaatlar uyg'unligi kontekstida kuzatish mumkin.

Bu borada V.F.Gorbuzov tahriri ostidagi moliyaviy-kredit lug'atida: "Asosiy vositalar – mavjud asosiy fondlarga investitsiya qilingan pul" [20; 385-bet], – deb hisoblanadi. O'z navbatida, bu yerda urg'u, asosiy vositalar – jamoa mehnati bilan moddiy yaratilgan, uzoq muddatga xizmat qiladigan va o'z qiymatini qismlarga bo'lib yo'qtadigan real qiymatliklar majmuyi sifatida o'rganilgan.

Zamonaviy hisob tizimida ham, hisob tizimi rivojlanishining barcha bosqichlarida ham "asosiy vositalar", "asosiy fondlar", "asosiy kapital", "uzoq muddatli aktivlar" mazmun-mohiyati yuzasidan turli ilmiy yondashuvlar mavjud.

Neoklassik sintez muallifi Pol Samuel: "Asosiy kapital uzoq muddat kelajakdagi ishlab chiqarishda foydalaniladigan, mulk huquqiga ega, bir vaqtning o'zida ham resurs, ham mahsulotdir" [21], – deb talqin etgan. Ushbu ta'rif ma'lum jihatdan konseptual asoslar mazmunini ochib beradi.

S.Fisher, R.Dornbush, R.Shmalenzi ta'kidlashlaricha, "kapital tovar va xizmatlar ishlab chiqarishda ishtirok etuvchi, ishlab chiqarish zaxirasi"[22], o'z tadqiqotlarida ular asosiy kapitalning uzoq muddat foydalaniluvchi boylik ekanligi, asosiy kapitalning hozirgi qiymati kelajakda nima ishlab chiqarishi bilan ham bog'liqligini aytadi.

Maqolani tayyorlash jarayonida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tadqiqotlari o'rganib chiqi. Shu jumladan, A.A.Axmedov "Muxammad al-Xorazmiy" nomli asarida al-Xorazmiyning insoniyat sivilizatsiyasi rivojlanishiga qo'shgan hissasini yoritib berilgan [1].

Karl Maks o'zining "Kapital" asarida ham o'sha davrda Yevropaning ko'plab davlatlari qonunchiligiga kiritilgan foydaning bir ko'rinishi – asosiy vositalar "amortizatsiya"si haqida fikr yuritadi.

Djorj Sarton 1927-yilda al-Xorazmiy haqida dunyoning ko'plab kutubxonalaridan izlanish olib boradi, u "Ilm tarixiga kirish" nomli kitobida aynan buxgalteriya fan sifatida rivojlanishida Xorazmiyning beqiyos mehnatini o'rganadi.

Ko'plab g'arb iqtisodiy fikrlar namoyandalari: "...asosiy vositalar – bir nechta ishlab chiqarish davrida ishtirok etuvchi kapital aktiv", – deb ta'riflaydi. «Asosiy vositalar» va «asosiy fondlar» tushunchalarini bir-biridan farqlashda olimlar ikki guruhga bo'lingan. Bir guruh iqtisodchi olimlar (A.F.Ionova, N.N.Selezneva[2], A.D.Sheremet [3], V.K.Sklyarenko, V.M.Prudnikova[4],

G.V.Savitskaya [5]) bu ikki tushuncha sinonim va «asosiy vositalar» tushunchasi qo'llanilganda, yonida qavsda «asosiy fondar» deb yozish lozim deb bilishadi. V.K.Sklyarenko va V.M.Prudnikova-ning ta'rifiga ko'ra, «asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida uzoq vaqt ishtirok etuvchi, hayotiy davrida tabiiy-moddiy shaklini saqlab turuvchi, o'zining qiymatini qismlarga bo'lingan holda amortizatsiya ajratmalari ko'rinishida mahsulot tannarxiga o'tkazadigan, ishlab chiqarish, moddiy va moddiy boyliklar yig'indisidir» [6].

Ikkinchi guruh olimlari (N.A.Solovyeva, Y.A.Medvedeva[7], A.M.Litovskix[8], V.F.Garbutov, Y.S.Sokolova [9]) fikricha, bu ikki xil tushuncha farqlanadi. Bu borada V.F.Gorbuzov tahriri ostidagi moliyaviy-kredit lug'atida «Asosiy vositalar – mavjud asosiy fondlarga investitsiya qilingan pul» deb hisoblanadi. Olimlar asosiy fondlarni jamoa mehnati bilan moddiy yaratilgan, uzoq muddatga xizmat qiladigan va o'z qiymatini qismlarga bo'lib yo'qotadigan real boyliklar yig'indisi sifatida o'rganishgan [10].

Mahalliy iqtisodchi olimlar ham asosiy vositalarning turli jihatlarini o'rganganlar. Jumladan, E.Gadoyev, N.Xasanov va L.Yugayning ta'riflariga ko'ra, «asosiy fondlar, moddiy va nomoddiy aktivlar majmuvi» sifatida tushuniladi [12].

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada adabiyotlar, olimlarning tadqiqotlari va ilmiy ishlari tadqiq etilib, tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Ma'lumolarni tatbiq etish natijasida asosiy vositalar buxgalteriya hisobi metodologiyasining tarixiy evolyutsiya jarayonida oltita asosiy bosqichni ajratib oldik. Bizning fikrimizga ko'ra, ushbu bosqichlar iqtisodiy jarayonlar evolyutsiyasida asosiy vositalar buxgalteriya hisobi metodologiyasi shakllanishi, rivojlanishi va takomillashishida muhim rol o'ynaydi. Har bir keyingi bosqichlar tarkibiga ilk bosqichlarning yutuqlari kirib ketadi. Ushbu bosqichlarni ko'rib chiqamiz (1-rasm).

Ilk bosqich – natural bosqich (er. av. 4000 – 500-yillar). Ilk xo'jalik hayoti paydo bo'lishi bilan shakllangan. Har qanday xo'jalik hayotining paydo bo'lishi hisobda aks etilishi lozim. Har qanday mulkning mavjudligi qayd etilishi esa «Inventarizatsiya», shuningdek, «Material (inventar) schyotlar» va «Hisob-kitob (kontokorrent) schyotlari» paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Ikkinchi bosqich – qiymat bosqichi (er.av. 500 – eramizning 1300-yillari). Eramizdan avval V asrda ilk bor pulning paydo bo'lishi keyingi davrlarda «qiymat» tushunchasi hamda «baholash» kabi yangi metodining shakllanishiga sabab bo'ladi. «Mulkning qiymati» degan


tushuncha paydo bo'ldi. Bu davrda hisob ikkiga bo'linadi: «Patrimonial» va «Kameral». Aynan patrimonial hisob mulkni hisobga olishda qo'llanilgan. Kameral hisob esa pulning kirim-chiqimini hisobini olishda, ya'ni patrimonial hisobda pul mulkning qiymat ifodasi bo'lgan, kameralda esa hisob-kitob vositasi bo'lgan.

Uchinchi bosqich – digrafik bosqich (eramizning 1300-1830-yillari). Xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalarini bilish zaruriyati **patrimonial** hisobni **unigrafik** (oddiy) hisob va **digrafik** (ikki yoqlama yozuv)larga ajratdi. Ushbu hisobning ikkala turi ham bugungi buxgalteriya hisobida amalda mavjud. Biroq **digrafik hisob** kengroq qo'llaniladi. Shuningdek, bu davrda schyotlar rejasida takomillashish ro'y berdi. Schyotlar rejasida schyotlar tartibi shakllandi. Ilk bor schyotlar rejasiga «O'z mablag'lari» va «Kapital» schyotlari kiritildi. «Amortizatsiya» atamasi shakllandi [16].

Bu davrda hayvonlar ham, ishchi kuchi ham mulk hisoblangan va kapital tarkibida hisobi yuritilgan. Bu tushuncha XX asrda ham buxgalteriya hisobida qo'llanilib keladi. Hayvonlar, aynan, ishchi hayvonlar asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi.

To'rtinchi bosqich – nazariy-amaliy bosqich (1850-1900-yillar). Bu bosqichda **digrafik hisob** ikki yo'nalishda rivojlanib boradi. Ayrim buxgalterlar buxgalteriya hisobining huquqiy jihatlarini talqin etishsa, yana bir guruh buxgalterlar iqtisodiy jihatlarini talqin etishadi. Yana bir guruh buxgalterlar buxgalterlik protseduralariga e'tiborini qaratishadi. Ushbu jarayonlar schyotlar rejasining differentsiatsiyasi natijasida schyotlarda klassifikatsiya hamda balans, daromad, tannarx, ishlab chiqarish xarajatlari kabi hisob kategoriyalari paydo bo'ldi. Bugungi kunda biz talqin etgan asosiy vositalar tushunchasi o'sha davrda «asosiy kapital» sifatida tushuniladi. Asosiy kapital tarkibiga mulk, zavodlar, mashinalar, murakkab mexanizmlar, uskunalar, kemalar, temir yo'l va o'sha davr kashfiyotlari (texnika, telefon, radio) kirar edi. Aynan o'sha davrda Karl Marks o'zining «Kapital» nomli kitobini yozadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining shakllanishi, temir yo'llar qurilishi «amortizatsiya» metodining keng qo'llanilishiga sabab bo'ldi. Asosiy vositalar hisobi metodologiyasining tarixiy rivojlanishi yana bir bosqichi aynan shu davrga to'g'ri keladi. Yana «lizing» xizmati paydo bo'ladi. O'sha davrda inglizcha «to lease» so'zi «mulkni foydalanishga olish» ma'nosini anglatadi. 1855-yilda Angliyaning Birmingem shahrida ilk bor Birmingem Wagon Company nomli lizing kompaniyasi tashkil topadi.



1-rasm. Asosiy vositalar buxgalteriya hisobining rivojlanish bosqichlari [12]

Ushbu kompaniya ko'mir va boshqa turdagi xomashyolarni tashish uchun temir yo'l vagonlarini lizingga topshiradi. Bu jarayon buxgalteriya hisobida asosiy vositalarni ijaraga berish hisobini yuritishga zamin yaratadi.

Beshinchi bosqich – ilmiy bosqich (1900-1950-yillar). Bu davrgacha buxgalteriya hisobi amaliy protseduralar majmuasi bo'lgan bo'lsa, bu davrga kelib, «Hisob yuritish» («Счётаведения») fani paydo bo'ladi. R.Y.Veytsman balansning aktiv qismiga: 1) asosiy vositalar, 2) aylanmadagi mablag'lar, 3) aylanmadan tashqari mablag'lar; passiv qismiga: 1) jamg'armalar, 2) kreditlar, 3)

tartibga soluvchi moddalar, 4) natijalarni kiritish orqali qo'llagan [13].

Oltinchi bosqich bosqich – zamonaviy bosqich (1950-yildan – h.v.). Ushbu bosqichda balansni talqin etishning dinamik va statistik metodlari shakllandi. Ikki yoqlama yozuv va inventarizatsiya natijalarini tasdiqlash zarurati paydo bo'lishi zamonaviy auditning paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Kalkulyatsiyaning metodlari evolyutsiyasi natijasida «Boshqaruv hisobi» fani paydo bo'ladi. Bu bosqichda har xil guruh foydalanuvchilari uchun yagona buxgalteriya hisobi tuziladi. Soliq

hisobi davlat manfaatlari jihatidan, moliyaviy hisob mulk egalari uchun, boshqaruv hisobi ma'muriy qarorlarini qabul qilish maqsadida tuziladi. Biroq buxgalteriya hisobi barcha guruh foydalanuvchilari uchun bir xil edi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq davlatlarida (15 ta davlat, shu jumladan, O'zbekiston ham) odatiy bo'lib qo'llaniladigan «Asosiy vositalar» («Основные средства») hisobi huquqiy-me'yoriy hujjatlari, asosiy vositalar hisobi bo'yicha yo'riqnomalar ishlab chiqildi va shu kungacha qo'llanilib kelinmoqda.

1927-yilda amerikalik Djorj Sarton «Introduction to the History of Science» ("Ilm tarixiga kirish") nomli kitobida buyuk alloma, mutafakkir Al-Xorazmiy (783-850) va olimning «Hind hisobi haqida» (Fi hisab al-hind), «Al-jabr va al-muqobala haqida qisqa kitob» (Al-kitab al-muxtasar fi hisab al-jabr va al-muqabala) asarlari haqida fikr yuritadi. Djorj Sartonning ta'kidlashicha, Al-Xorazmiy har qanday sonni 1 dan 9 gacha raqamlar va maxsus belgi – nol («0») orqali ifodalash mumkinligini isbotlagani haqida hamda butun sonlar, o'nliklarni kasr sonlar bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish, kvadrat ildizdan chiqarish kabi arifmetik amallarni muomalaga olib kirdi va shu tariqa hisoblashning hozirgi vaqtda foydalanilayotgan tizimi butun dunyoga tarqalganini yozadi. Yangi uslub o'zining qulay va soddaligi bilan Yevropada ham tez yoyildi. Al-Xorazmiy bayon etgan o'n xonali sonlar katta, kichik, butun va kasr sonlarni yozish, ular orasida bajariladigan barcha amallarni tubdan qulaylashtirdi va soddilashtirdi. G'arbda o'sha davrda rim raqamlari oson soxtalashtirilishi sababli Al-Xorazmiy dunyoga taqdim etgan «Arab raqamlari» Rim raqamlarining o'rnini egalladi va Yevropada keng qo'llanila boshladi [14].

Al-Xorazmiyning ilmiy merosiga zamonaviy buxgalteriya hisobi fanining yutuqlari nuqtayi nazaridan yondashuvi olim ijodining naqadar benazir ekanligidan dalolat beradi. Xorazmiyning kashfiyotlari o'sha davrda mulkning qiymati, mulkni baholash, tannarx, kalkulyatsiya metodlarini pul ifodasida aks ettirish, hisoblash, ma'lumotlarni solishtirish, taqqoslash, tahlil qilish metodlarining shakllanishi va takomillashishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Ibn Kaftiy yozishicha, Bog'dodda uy, bog'lar qurilishida ishlatiladiga arxitekturaga oid hisob-kitoblardan tashqari qurilishga sarflanadigan xomashyoning o'lchami, uning bir birlik va umumiy hajmining o'lchov birligi, puldagi ifodasi, jami qurilish sohasidagi xarajatlar, qurilish muddati, ishchilar sonini aks ettirish kabi hisob-kitoblar amalga oshirilgan. Qurilishni ko'p yillarni talab qiluvchi obyektlarining hisob-kitobi Marv kutubxonasida saqlanganligini yozadi.

Bundan o'sha davrda qurilish sohasi buxgalteriyasi shakllanganini anglashimiz mumkin. Qurilishga oid buxgalterlik yozuvlari yozib borilardi.

A.Axmedovning ta'kidlashicha, Xorazmiyning «Al-jabr va-l muqobala» risolasi o'zbek tiliga «To'ldirish va ro'para qo'yish» deb tarjima qilindi [15]. Ushbu risoloda tadqiq etilgan metodlar: to'ldirish – jarayonlarni sonlarda ifodalab yozish, ro'para qo'yish – taqqoslash, solishtirish buxgalteriya hisobiga hujjatlarni rasmiylashtirish va ma'lumotlarini solishtirish kabi protseduralarni olib kiradi. «Xorazmiy davri» deb nomlanuvchi davrda yozilgan kitoblar buxgalteriya hisobining rivojlanishida ham yirik ilmiy inqilob yasadi [16].

Al-Xorazmiy davrdoshi hamda safdoshi, asli kelib chiqishi hozirgi Tojikistonning Panj va Vaxsh daryolari orasida joylashgan Xuttal nomli hududdan bo'lgan olim Abd al-Hamid ibn Turk al-Xuttaliyning ismiga «hasib» («hisobchi») laqabi qo'shib yoziladiki, bu so'z uning hisobchi – zamonaviy talqindagi buxgalter bo'lganidan ishoradir. Bibliografik adabiyotlarda Ibn Turk al-Xuttaliy qalamiga mansub riyoziyotga oid: «Hisob bo'yicha to'plam», «Hisobning nodir masalalari va sonlarning xususiyatlari» kabi noyob asarlari haqida ma'lumotlar mavjud. Manbalarga ko'ra, al-Xuttaliyning «Savdolashish kitobi»da mulkni baholash, sotish jarayonini son ko'rinishda aks ettirish hamda ushbu jarayonlarni aks ettirishdagi matematik hisob-kitoblar haqida yozilgan.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda asosiy vositalar hisobi hamda audit o'tkazishda qo'llanilayotgan usullar va moliyaviy hisobotlarda aks ettirilayotgan axborotlar investorlar, menejerlar va boshqa axborotdan foydalanuvchilar talablariga to'liq muvofiq keladi, deb bo'lmaydi. Shuning uchun asosiy vositalar hisobi va auditini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, hisob va auditning ilg'or uslubiyotini joriy etish asosida axborotlarning ishonchligi, ahamiyatligi va to'raligini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shu jihatdan asosiy vositalar buxgalteriya hisobining evolyutsion bosqichlari va nazariy rivojlanishini o'rganish muhim, deb hisoblaymiz. Islom renessansi davri asosiy vositalar buxgalteriya hisobining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Ayniqsa, o'sha davrda yashab o'tgan olimlarning qo'shgan hissalarini nafaqat buxgalteriya hisobi, balki sivilizatsiya taraqqiyotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Al-Xorazmiy va uning davrdoshlari buxgalteriya hisobi, aynan xarajatlarni hisoblash, moddiyliklarning hisobini yuritish, inventarizatsiya kabilarni zamonaviy buxgalteriya uchun meros qilib qoldirgan.

Fikrimizga ko'ra, biz nafaqat Yevropa olimlari va davlat arboblarning tarixiy merosini, balki ona yurtimiz zamirida buyuk shaxslar, olimlar va

ulamolarning fan taraqqiyotiga qo'shgan tengsiz merosini tatbiq etishimiz va bo'lajak avlodga o'rgatishimiz kerak.

Manba va adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov A.A. *Muxammad al-Xorazmiy. // Buyuk siymolar, allomalar. T. 1. – T. – 280 b. [13-6].*
2. Ионова А.Ф. *Учет и анализ внешнеэкономической деятельности. – М.: ТК Велби: Проспект, 2006. – 623 с. [с. 231-232].*
3. Шеремет А.Д. *Комплексный анализ хозяйственной деятельности. Учебник. / А.Д.Шеремет. – М.: Инфра-М, 2006. – 415 с. [с. 217].*
4. Скляренко В.К. *Экономика предприятия. / В.К.Скляренко, В.М.Прудников. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 527 с. [с. 177].*
5. Савитская Г.В. *Анализ хозяйственной деятельности предприятия. Учебное пособие. / Г.В.Савитская. 7-е изд., испр. – М.: Новое знание, 2002. – 704 с. [с. 296].*
6. Скляренко В.К. *Экономика предприятия. / В.К.Скляренко, В.М.Прудников. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 527 с. [с. 177].*
7. Соловьева Н.А. *Анализ основных средств и эффективности их использования. Учебное пособие. / Н.А.Соловьева, Е.А.Медведева. – Краснояр. гос. торг. экон. ин-т. – Красноярск, 2006. – 54 с. [с. 5].*
8. Литовских А.М. *Финансовый менеджмент. Конспект лекций. / А.М.Литовских. – Таганрог: Изд-во ТРТУ, 1999. – 76 с. [с. 5].*
9. Соколова Е.С. *Бухгалтерский учет. Учебно-методический комплекс. / Е.С.Соколова. – М.: Изд. центр ЕАОИ, 2008. – 200 с. [с. 23].*
10. *Финансово-кредитный словарь. Книга автора гл. ред. В.Ф.Горбузов; члени гл. редакции В.С.Алхимов [и др.]. Издано: (1984) 1084 с. [с. 385].*
11. Lourens Robert Diksi. *Auditing; a practical manual for auditors – London, Gee and co., 1892 (po 1969 ne meneye 18 izd.).*
12. Guzalbegim Murodovna Rakhimova. *Wissenschaftliche und praktische fragen der ausländischen erfahrung bei der berechnung der abschreibung des anlagevermögens in Usbekistan. International journal of Business, Management and Accounting. 2022. 12/1.*
13. Вейцман Р.Й. *Энциклопедия торгового счетоводства. / Под ред. Р.Й.Вейцмана. – М.: Издание Центросоюза, 1924. – 216 с.*
14. Abduhalimov B. (2010) *Bayt Al-Hikma. – T.: O'zbekiston, 2010. – 272 b. [139-bet].*
15. Axmedov A.A. *Muxammad al-Xorazmiy. // Buyuk siymolar, allomalar. T. 1. – T. – 280 b. [13-b.].*
16. Sarton G. (2012). *Ancient science through the golden age of Greece. Courier Corporation. [p. 563.]*
17. Lourens Robert Diksi. *Auditing; a practical manual for auditors – London, Gee and co., 1892 (po 1969 ne meneye 18 izd.).*
18. Эндовитский Д.А., Мокшина К.Н. *Сущность основных средств как объекта бухгалтерского учета в контексте проблем учета капитала. // Международный бухгалтерский учет, 2013. № 25.*
19. Мескон М. *Основы менеджмента. Учебник. – М., 1997. – 488 с.*
20. Горбузов В.Ф. *Финансово-кредитный словарь. / Под ред. В.Ф.Горбузова. – М.: Финанси и статистика, 2005. – 900 с.*
21. Pol E. Samuelson, Vilyam D. Nordhaus. *Economics. [Перевод с английского О.Л.Пелявского]. Предм. указ.: с. 1312-1325 Пер.: Самуэльсон, Паул А. Economics. 0-07-351129-3. Экономик.*
22. Fisher S., Dornbush R., Shmalenzi R. *Economics. Пер. со 2-го англ. изд. – М.: Дело ЛТД, 1995. – 864 с.*



МАРКАЗИЙ ОСИЁ МАМЛАКАТЛАРИДА ИСЛОМИЙ БАНК ФАОЛИЯТИ СОҲАСИ ИСЛОМИЙ МОЛИЯ МАҲСУЛОТЛАРИ ТАҚҚОСИ

Ёрқулов Умиджон Музаффар ўғли

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

докторанти

Др. Мутаз Абожсиб

IFAAS гуруҳида операцион директор

 https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss6/a23

Аннотация. Ушбу мақолада Марказий Осиедаги Исломий молия қонунчилик даражасида жорий этилган давлатларда, яъни Қозоғистон, Қирғизистон, Тожикистон давлатларида, бирламчи ва иккиламчи тадқиқотлар натижалари асосида Исломий банк фаолияти соҳасида таклиф этилаётган молиявий маҳсулотлар ҳақида маълумот ва мамлакатлараро Исломий банк фаолияти маҳсулотлари қиёси тақдим этилади.

Калит сўзлар: исломий молия, исломий молия Марказий Осиеда, исломий банк фаолияти, исломий молия Тожикистонда, Қирғизистонда, Қозоғистонда, исломий молия маҳсулотлари, исломий депозитлар.